

# BIRJAVIY TAHLIL

AVGUST | 2023



[www.uzse.uz](http://www.uzse.uz)  
00170, O'zbekiston,  
Toshkent sh., Mustaqillik  
shox ko'chasi, 107

# Mundarija

---


<b>BIRJAVIY SAVDOLAR</b> .....	3
Birjaviy savdolar tahlili.....	4
Birjaviy savdo maydonlari tahlili.....	5
Main Board bo`yicha Top 10 aksiya.....	7
Iqtisodiy sohalar bo`yicha tahlil.....	8
Birja kotirovkalar varag`iga kiritilgan aksiya emitentlarining umumiy bozor kapitallashuvi .....	9
Birja kotirovkalar varag`i.....	10
Savdo narxlarining o`zgarishi tahlili.....	11
<b>LISTINGDAN TASHQARI SAVDO MAYDONI</b> .....	12
LTSMda savdolar tahlili.....	13
LTSM savdo maydonlari tahlili .....	14
LTSM Main Board bo`yicha Top 5 aksiya .....	15

**BIRJAVIY  
SAVDOLAR**

## Birjaviy savdolar tahlili

2023 yil avgust oyida “Toshkent” RFB savdo maydonlarida birja kotirovkalari varaqasidagi emitentlarning qimmatli qog`ozlari bilan jami 175,32 mlrd so`mlik 40 578 dona bitim tuzildi. Bitimlar obyektlari 68 ta emitentning 5,23 mlrd dona qimmatli qog`ozlari bo`ldi.

### 2023 yil avgust oyi bo`yicha savdolar hajmi va bitimlar soni



Yakunlangan oy davomida eng ko`p bitimlar 10 avgustda amalga oshirilgan bo`lib, 3 197 donani; eng kam bitimlar esa 18 avgust sanasida tuzilgan bo`lib, ularning soni 1 029 donani tashkil etdi.

Bitimlarning eng katta hajmi 10 avgust kuni qayd etilgan bo`lib, kun davomida 105,94 mlrd so`mdan ortiq bitimlar amalga oshirilgan. Avgust oyida o`rtacha kunlik savdolar soni 1 764 ta bitimni; o`rtacha kunlik bitimlar hajmi esa 7,62 mlrd so`mni tashkil etdi. “Stock Market” aksiyalar bozorining “Main Board” savdo platformasidagi bitimlarning o`rtacha kunlik hajmi 7,19 mlrd so`mni tashkil etdi. Hisobot oyida “Stock market” aksiyalar bozorining “Nego Board” savdo maydonida 7,67 mlrd so`mlik 3 ta bitim tuzildi.

“Bond Market” obligatsiyalar bozorining “Main Board” platformasida jami 2,38 mlrd so`mlik 43 ta bitim tuzildi.

## Birjaviy savdo maydonlari tahlili


“Stock Market” aksiyalar bozorining G1 - “Main Board” asosiy savdo platformasida 63 ta emitentning aksiyalari bilan jami 165,27 mlrd so`mlik 40 532 ta bitimlar qayd etildi.

Bozor	Savdo maydoni	Bitimlar soni	Qimmatli qog`ozlar soni	Bitimlar hajmi, so`m
<b>UZSE STOCK</b>	Main Board	40 532	3 980 326 305	165 265 763 192,75
	Nego Board	3	1 253 919 804	7 665 302 913,22
<b>UZSE BOND</b>	Main Board	43	2 380	2 384 771 135,78
<b>JAMI</b>		<b>40 578</b>	<b>5 234 248 489</b>	<b>175 315 837 241,75</b>


“Stock Market” aksiyalar bozorining G1 – “Main Board” savdo maydonida bitimlarning eng katta hajmi “RAVNAQ-BANK” AJning 157,34 mln dona /RBQB/ oddiy aksiyalari bilan 157,34 mlrd so`mlik bitim tuzildi. Nominal qiymati 1 000,00 so`mni tashkil etuvchi qimmatli qog`ozlarning narx diapazoni 1 000,00 – 3 450,00 so`m oralig`ida bo`ldi.

“Stock Market” aksiyalar bozorining T1 – “Nego Board” savdo platformasida 7,67 mlrd so`mlik 3 ta bitim qayd etildi. Ushbu bo`limda tuzilgan bitimlarning eng katta hajmi “KAFOLAT Insurance Company” AJning /KFLT/ qimmatli qog`ozlari bilan bo`lib o`tgan 5,54 mlrd so`mlik bitimga to`g`ri keldi.

**Aksiyalar bozorining Main Board maydonida bo`lib o`tgan bitimlar soni, dona**



**Aksiyalar bozorining Main Board maydonida bo`lib o`tgan bitimlar hajmi, mlrd so`m**



Ushbu hujjat faqat ma'lumot olish uchun taqdim etilgan va qimmatli qog`ozlar bozorida operatsiyalarni amalga oshirish bo`yicha taklif, xususan, ularni sotib olish yoki sotish bo`yicha taklifni tashkil etmaydi.

## "Bond Market" obligatsiyalar bozori

Hisobot davri yakuniga ko`ra obligatsiyalar bozorida quyidagi to`rtta emitentning obligatsiyalari bilan umumiy qiymati 2,38 mlrd so`mlik 43 ta bitim tuzildi:

- "Imkon finans mikromoliya tashkiloti" AJ /IFMT3/ – 1,18 mlrd so`m;
- "Biznes Finans Mikromoliya Tashkiloti" MChJ /BFMT3/ – 1,11 mlrd so`m;
- "Hamkor invest lizing" MChJ /HKIL3/ – 92,00 mln so`m;
- "Asia Alliance Bank" AKB /AABK1/ – 4,00 mln so`m.

Bugungi kunda "Toshkent" RFB birja kotirovkalari varaqasida 8 ta emitentning 9 ta qarz qimmatli qog`ozlari mavjud.

№	Emitent	Tiker	Emissiya sanasi va So`ndirilish sanasi	Kupon stavkasi	Bitta bondning nominal qiymati (so`m)	Emissiya qilingan bondlar soni
1	"Asia Alliance Bank" ATB	AABK1	15.07.2019-15.07.2026	MB asosiy stavkasiga +4%	1 000 000	50 000
2	"Kapitalbank" ATB	KPB4	13.05.2020-21.05.2027	MB asosiy stavkasiga +5%	1 000 000	50 000
3	"Chust Rir Mikrokredit Tashkiloti" MChJ	CRMT3	07.04.2021-30.03.2024	24,00%	1 000 000	2 000
4	"Artel Electronics" MChJ	AREL2	10.06.2022-29.12.2023	21,50%	100 000 000	100
		AREL3	10.06.2022-29.12.2023	22,50%	100 000 000	100
5	"O`zagrolizing" AJ	UZAL2	13.09.2022-10.03.2024	23,00%	1 000 000	50 000
6	"Biznes finans mikromoliya tashkiloti" MChJ	BFMT3	16.09.2022-30.08.2025	27,00%	1 000 000	10 000
7	"Imkon finans mikromoliya tashkiloti" MChJ	IFMT3	10.04.2023-25.03.2026	28,00%	1 000 000,00	6 000
8	"Hamkor invest lizing" MChJ	HKIL3	25.04.2023-06.05.2023	18,00%	1 000 000,00	17 500

## Main Board bo'yicha Top 10 aksiya

2023 yil avgust oyida "Toshkent" RFBning "Stock Market" aksiyalar bozorining G1- "Main Board" maydonida tuzilgan bitimlar soni va hajmi bo'yicha top 10 aksiyalar.

### Bitimlar hajmi bo'yicha Top 10 aksiya, mlrd so'm



2023 yilning avgust oyi bo'yicha 157,34 mlrd so'mga teng bo'lgan eng katta hajmdagi bitimlar "Ravnaq-bank" AJning /RBQB/ oddiy aksiyalar bilan qayd etilgan. Undan keyingi o'rinlarni mos ravishda 1,50 mlrd va 1,36 mlrd so'mga teng bo'lgan "Elektrqishloqqurilish" AJning /EQUU/ va "O'zmetkombinat" AJning /UZMK/ oddiy aksiyalari bilan tuzilgan bitimlar egallagan. Yuqori 10 talikni "UzAuto Motors" AJning /UZMT/ hamda "Biokimyoy" AJning /BIOK/ aksiyalari bilan tuzilgan mos ravishda 260,07 mln va 236,58 mln so'mlik bitimlar yakunladi.

### Bitimlar soni bo'yicha Top 10 aksiya, dona




Oy davomida eng ko'p bitimlar "O'z sanoatqurilishbank" ATBning /SQBN/ aksiyalari bilan tuzilgan bo'lib, oyiga 11 246 dona bitimni tashkil etdi. 2 476 ta bitim bilan "Kapital sug'urta" AJning /KASU/ aksiyalari Top 10 talikda ikkinchi o'rinni egalladi. Yuqori o'ntalikni "Ipoteka-Bank" ATBning /IPTB/ va /IPTB1/ oddiy hamda imtiyozli aksiyalari bilan mos ravishda tuzilgan 1 137 ta va 1 129 ta bitimlar yakunlagan.

## Iqtisodiy sohalar bo'yicha tahlil

Bitimlar hajmi bo'yicha iqtisodiy tarmoqlar ichida banklar va sug'urta sohasining qimmatli qog'ozlari yetakchi bo'ldi. Bank sektori emitentlarining qimmatli qog'ozlari bilan tuzilgan bitimlar hajmi 158,50 mlrd so'mni tashkil etdi, bu umumiy birja aylanmasining 90,41 foizini tashkil etdi. Sug'urta kompaniyalari qimmatli qog'ozlari bilan – 5,63 mlrd so'm hamda energetika sohasiga taaluqli korxonalarining qimmatli qog'ozlari bilan – 4,48 mlrd so'mlik bitimlar qayd etildi. Eng kam hajmdagi bitimlar esa “Transport” sektoriga tegishli emitentlarning qimmatli qog'ozlari bilan amalga oshirilgan bo'lib, 883,95 ming so'mni yoki umumiy birja aylanmasining 0,001 foizini tashkil etdi.


2023-yil avgust oyida iqtisodiy sohalar bo'yicha bitimlar hajmi, %

- Banklar (90,41%)
- Sug'urta (3,21%)
- Energetika (2,55%)
- Boshqalar (1,88%)
- Sanoat (1,13%)
- Agrosanoat (0,41%)
- Qurilish (0,32%)
- Lizing (0,05%)
- Aloqa (0,03%)
- Transport (0,00%)



Eng ko'p bitimlar soni bank sektori emitentlarining qimmatli qog'ozlari bilan tuzilgan bo'lib, 24 277 ta bitimni tashkil etdi. Sug'urta sohasi emitentlarining qimmatli qog'ozlari bilan 3 300 dona, sanoat sohasiga aloqador emitentlarining qimmatli qog'ozlari bilan esa 3 095 ta bitim tuzildi. Iqtisodiy tarmoqlar bo'yicha eng kam bitimlar soni “Aloqa” tarmog'ida – 687 dona, “Transport” tarmog'ida – 139 dona va “Lizing” sohasida – 58 donaga teng bo'lgan emitentlarning qimmatli qog'ozlari bilan tuzilgan bitimlarga to'g'ri keldi.


2023-yil avgust oyida iqtisodiy sohalar bo'yicha bitimlar soni, dona





## Birja kotirovkalar varag`iga kiritilgan aksiya emitentlarining umumiy bozor kapitallashuvi

**2023 yil avgust oyi uchun birja kotirovkalari varag`iga kiritilgan emitentlarning umumiy bozor kapitallashuvi, trln so`m**



Hisobot davrida birja kotirovkalari ro`yxatiga kiritilgan aksiya emitentlarining umumiy bozor kapitallashuvida 122,90 trln so`mdan 131,48 trln so`mgacha bo`lgan diapazonda o`zgarishlar qayd etildi.

Bozor kapitallashuvining eng katta hajmi 16 avgustga to`g`ri kelib, 131,48 trln so`mgacha ko`tarilgan. Bozor kapitallashuvining eng past qiymati 7 avgust kuni qayd etilgan bo`lib, ushbu davrda emitentlarning umumiy bozor kapitallashuvi 122,90 trln so`mni tashkil etgan.

2023 yil 31 avgust holatiga ko`ra, birja kotirovkalari varag`iga kiritilgan 107 ta aksiya emitentlarning umumiy bozor kapitallashuvi 130,54 trln so`mni tashkil etdi.

## Birja kotirovkalar varag`i


2023 yil 1 avgust holatiga ko`ra, birja kotirovkalari varaqasida 113 ta emitentning 169 ta instrumentlari mavjud edi. Hisobot davri davomida 1 ta emitentning 2 ta instrumenti birja kotirovkalari varaqasiga kiritilda hamda 1 ta emitentning oddiy aksiyalari listingdan chiqarildi.

Jumladan, joriy oy davomida “Farg`onaazot” AJning FRAZ va FRAZP birja tikkeri ostidagi oddiy hamda imtiyozli aksiyalari birja kotirovkalari varaqasiga kiritildi. Shuningdek, ixtiyoriy asosda emitentning talabiga binoan “Jahon ixtisoslashtirilgan aralash mollari savdo kompleksi” AJning /JMSK/ aksiyalari “Toshkent” RFB birja kotirovkalari varaqasidan chiqarildi.

Natijada, 2023 yil 31 avgust holatiga ko`ra, birja kotirovkalari varaqasida 113 ta emitentning 170 ta instrumenti mavjud bo`lib, ulardan: 107 tasi aksiyalar, shu jumladan, 2 tasi obligatsiyalar emitentlari; 6 ta emitent - faqat obligatsiya emitentlari hisoblanadi.


### Listing toifalari bo`yicha birja bitimlari to`g`risidagi ma'lumot

Bitimlar soni, dona













■ Premium ■ Standart ■ Tranzit

Bitimlar hajmi, mlrd so'm



■ Premium ■ Standart ■ Tranzit

## Savdo narxlarining o'zgarishi tahlili

№	Emitent nomi Tikker	01.08.2023yildagi yopilish narxi	31.08.2023yildagi yopilish narxi	Narxlar o'zgarishi	Yopilish narxlarini dinamikasi
1	<Kvarts> AJ KVTS	1 810,00	1 939,58	7,16%	
2	<Ipoteka bank> ATIB IPTB1	3,81	4,00	4,99%	
3	<Chilonzor buyum savdo kompleksi> AJ CBSK	1,80	1,84	2,22%	
4	<O'z sanoat qurilish bank> ATB SQBN	10,10	10,29	1,88%	
5	<Ipoteka bank> ATIB IPTB	0,96	0,93	-3,12%	
6	<O'zmetkombinat> AJ UZMK	8 300,00	8 000,00	-3,61%	
7	<Qishloq qurilish bank> ATB KKB1	479,00	450,00	-6,05%	
8	<Kogon yog' - ekstraksiya zavodi> AJ KYEZ	560,00	526,00	-6,07%	
9	<Kapital sug'urta> AJ KASU	0,05	0,02	-60,00%	
10	<Hamkorbank> ATB* HMKB	142,22	53,00	-62,73%	

\* 1 dona aksiya uchun qo'shimda 2 ta aksiya chiqarish yo'li bilan qimmatli qog'ozlar sonining ko'payishi munosabati bilan "Hamkorbank" ATB oddiy va imtiyozli aksiyalarining narxi 1/3 nisbatda o'zgartirildi.

Joriy yilning 1 avgustidagi aksiyalarning yopilish narxi bilan 31 avgustdagi yopilish narxini solishtirsak, eng ko'p savdo qilingan aksiyalar qatorida 4 ta emitentning qimmatli qog'ozlari narxi oshishni qayd etgan. Narxlarining eng sezilarli o'sishi "Kvarts" AJning /KVTS/ va "Ipoteka bank" ATIBning /IPTB1/ aksiyalarida kuzatildi va o'sish mos ravishda **▲7,16%** va **▲4,99%** ni tashkil etdi.

Jadvalda aks ettirilgan 4 ta emitentning qimmatli qog'ozlari bo'yicha narxlar **▼3,12%** dan **▼6,07%** gacha bo'lgan oraliqda bir oz pasaydi. Shuningdek, davr oxirida "Kapital sug'urta" AJning /KASU/ oddiy aksiyalari narxi **▼60,00%** ga arzonlashdi.

Shu bilan birga, "Hamkorbank" ATB aksiyalarining aksiyadorlar ixtiyorida bo'lgan aksiyalari soni va turiga nisbatan 1:2 nisbatda qo'shimcha aksiya chiqarilishi munosabati bilan 22 avgust kuni aksiyalar narxi 1/3 nisbatda korrektirovka qilindi.



# **LISTINGDAN TASHQARI SAVDO MAYDONI**

**(LTSM – uyushgan nobirjaviy savdolar)**



## LTSMda savdolar tahlili

Ko`rib chiqilayotgan davrda “Toshkent” RFBning listingdan tashqari savdo maydonlari (LTSM)da 58 ta emitentning 29,04 mln dona qimmatli qog`ozlari bilan jami 11,17 mlrd so`mlik 5 238 ta bitimlar qayd etildi.

Kundalik hisobda eng ko`p bitimlar 22 avgust kuni amalga oshirilgan bo`lib, 355 donani; eng kichigi esa 2 avgustda qayd etilgan bo`lib, 126 dona bitimni tashkil etgan. Bitimlarning eng katta hajmi 11 avgust kuniga to`g`ri kelib, kun davomida 7,08 mlrd so`mdan ortiq bitimlar amalga oshirilgan.


Avgust oyida o`rtacha kunlik savdo bitimlari soni 228 ta bitimni; o`rtacha kunlik savdolar hajmi 485,56 mln so`mni tashkil etdi. “SME Stock” aksiyalar bozorining “Main Board” listingdan tashqari savdo maydonchasi bo`yicha o`rtacha kunlik bitimlar hajmi 421,41 mln so`mni tashkil etdi. Shuningdek, “SME Stock” aksiyalar bozorining “Nego Board” platformasida 1,29 mlrd so`mlik 3 ta bitim tuzildi.

“SME Bond” obligatsiyalar bozorining “Main Board” listingdan tashqari savdo maydonchasida umumiy qiymati 190,00 mln so`m bo`lgan 6 ta bitim tuzildi.

**Bitimlar soni, dona**



**Bitimlar hajmi, mln so`m**




## LTSM savdo maydonlari tahlili

“SME Stock” aksiyalar bozorining G1 – “Main Board” listingdan tashqari asosiy savdo maydonida 56 ta emitentning aksiyalari bilan jami 9,69 mlrd so`mlik 5 229 ta bitimlar qayd etildi.


Bozor	Savdo maydoni	Bitimlar soni	Qimmatli qog`ozlar soni	Bitimlar hajmi, so`m
<b>SME STOCK</b>	Main Board	5 229	28 938 979	9 692 528 089,20
	Nego Board	3	104 043	1 285 287 000,00
<b>SME BOND</b>	Main Board	6	190	190 000 000,00
<b>JAMI</b>		<b>5 238</b>	<b>29 043 212</b>	<b>11 167 815 089,20</b>

“SME Stock” aksiyalar bozorining G1 - "Main Board" savdo maydonida bitimlarning eng katta hajmi "MY-INSURANCE" AJning 7,01 mlrd so`mlik 7,01 mln dona /A057330/ oddiy aksiyalari bilan tuzilgan, bu umumiy LTSM savdo hajmining 62,77%ni tashkil etadi. Aksiyalarning savdo narxi ularning nominal bahosi bilan teng bo`lib 1 000,00 so`mni tashkil etgan.

**Aksiyalar bozorining Main Board savdo maydonidagi bitimlar soni, dona**




**Aksiyalar bozorining Main Board savdo maydonidagi bitimlar hajmi, mlrd so`m**



## LTSM Main Board bo'yicha Top 5 aksiya


2023 yil avgust oyida “Toshkent” RFBning “SME Stock” aksiyalar bozorining G1-“Main Board” listingdan tashqari savdo maydonida tuzilgan bitimlar soni va hajmi bo'yicha top 5 aksiyalar.

### Bitimlar soni bo'yicha Top 5 aksiya, dona



Oy davomida eng ko'p bitimlar soni “O'zsanoateksport” AJning /A056290/ aksiyalari bilan tuzilgan 1 051 dona bitimga to'g'ri keldi. 453 ta bitim bilan “Turkiston Invest” AJning /A042610/ aksiyalari Top-5likdan ikkinchi o'rinni egalladi. Top-5likni “OLIM-F” AJning /A045800/ oddiy aksiyalari bilan tuzilgan 360 ta bitim yakunladi.

### Bitimlar hajmi bo'yicha Top 5 aksiya, mln so'm



Bitimlarning eng katta hajmini “My-Insurance” AJning /A057330/ aksiyalari bilan tuzilgan 7,01 mlrd so'mlik bitimlar tashkil etdi. Undan keyingi o'rinlarni “New Life Insurance Company” AJning /A057280/ va “Toshkentvino Kombinati” AJning /A028090/ aksiyalari, tegishli ravishda 1,50 mlrd so'm va 600,41 mln so'mlik oddiy aksiyalar bilan tuzilgan bitimlar egalladi.